

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA AQLIY VA MUSIQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Yoqubov Raxmatillo Istam o'g'li

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Abdixodirova Go'zal Erali qizi

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Umumiy pedagogika
kafedrasи o'qituvchisi*

Maxkamova Shoxida Raxmatullayevna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqa ta'limi kafedrasи dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirishda sinfdan tashqari olib boriladigan mashg`ulotlar va ularning dars jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Sinfdan tashqari mashg`ulotlarda aqliy va musiqiy tarbiyani shakllantirish yo'llari keltirilan.

Kalit so`zlar: “Bilimlar anjumanı”, to`garak, mashg`ulot, “Kitob haftaligi”, aqliy tarbiya, aqliy ta`lim, malaka, musiqiy mashg`ulotlar, cholg`ularda ijro, ko`nikma.

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan birga mustaqil o'qiy oladigan faol kitobxонни tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga xavasni orttiradi. Sinfdan tashqari mashqulotlar bevosita sinfda olib boriladigan o'quv darslari bilan bog`liq hisoblanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar o'zlari mustaqil kitob tanlab, uni mutaola qiladilar, o'qiganlari yuzasidan bahs-munozora uyushtiradilar, bu esa ularda aqliy tarbiyaning shakllantirib, dunyoqarashini o'stirishga erkin mulohazalar tutishga o'rgatadi. Bundan tashkari sinfdan tashqari o'qish mashg`ulotlarida mustaqil bajarish uchun mashg`ulotlar eng yaxshi ishonarli taqrizlarni yozuvchi haqida to`plagan ma'lumotlarni o'qish “tez aytish”, “topishmoqlar”, “maqollar aytish”, “bilimlar anjumanı” kabi ko'rik tanlovlard tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirishib, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qigan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, “Kitob haftaligi” tashkil etish, asarlar asosida kichik insho yozishni mashq qilish, o'quvchilar aqliy faoliyatini shakllantirishda muhim omildir.

Bundan tashqari, boshlang`ich sinflarda matematika darslarida ham o'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish maqsadida sinfdan tashqari mashg`ulotlar olib borish mumkin. Masalan: darsdan tashqari holatlarda to`garaklar joriy qilish. Matematika fani haftaligi o'tkazish, sinflar o'rtasida matematika fani yuzasidan bellashuvlar tashkil qilish. “Eng yaxshi matematik” tanlovini o'tkazish va boshqa bir qator sinfdan tashqari mashg`ulotlar olib borish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, ona tili fani yuzasidan o'quvchilar aqliy salohiyatini oshirish maqsadida sinfdan tashqari mashg`ulotlar tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar va sinflar o'rtasida “Kimning xati chiroyli”, “Eng yaxshi insho” ko'rik tanlovlari sinfdan tashqari holatlarda turli tadbirlar o'tkazish, to`garaklar tashkil etish, “Navoiyxonlik”

kechalarini o'tkazish bilan o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, aqliy salohiyatlarini oshirishga erishishi mumkin.

Atrofimizdagi olam, tabiat darslarida sinfdan tashqari mashg`ulotlar olib borishda ularni jonli tabiat olamiga olib chiqish, sayohatlar uyuştirish, hayvonot bog'lariga olib borish, vohamizda uchraydigan o'simliklar turlarini ko'rsatish, tabiat in'om etgan boyliklarni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazish to'g'risida tushunchalarni shakllantirish orqali erishish ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarga sinfda va sinfdan tashqari darslarida tabiat haqida turli videolavhalar qo'yib ko'rsatish va eshittirish orqali ularda ongni anglash xislatlarini rivojlantirish ham sinfdan tashqari olib boriladigan mashg`ulotlarning muhim shartidir.

Jismoniy tarbiya darslarida esa sinfdan tashqari olib boriladigan mashg`ulotlarda o'quvchilarni sport musobaqalariga olib borish, darsdan bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'llanishini nazorat qilish, maktablarda boshlang`ich sinflar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish, bolalarni sportga qiziqtirib, turli sport musobaqalariga jalg qilish. "Sog'lom tanda- sog' aql" degan hikmatli so'z asosida sportning sog'ligimizga foydasi haqida tushuncha berish va ongiga singdirish orqali aqliy tarbiyani shakllantirish amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari olib boriladigan mashqlar asosan o'quvchilarni nazariyada olgan bilimlarini amaliyatda ko'rib ishonch hosil qilishga o'rnatiladi. Boshlanqich sinflarda (1-4) sinfdan tashqari olib boriladigan barcha fanlar bo'yicha mashg`ulotlar o'quvchilarni nafaqat aqliy tarbiyani, balki ularda axloqiy jismoniy estetik tarbiya shakllarining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan mashg`ulotlar qatorida musiqiy mashg`ulotlarning ham o'rni katta hisoblanadi. O'quvchi yoshlar aniq va tabiiy fanlardan bilim olib aqliy charchoq tug'ilgan vaqtida musiqiy mashg`ulotlarni darsdan tashqari to'garak sifatida joriy qilish bolalarda ma'naviy charchoqni bartaraf etib ularda musiqiy ong va savodxonlikni oshirishda ulkan xissasini qoshadi. Musiqiy mashg`ulotlar ichiga; cholg'u ijrochiligi, xor jamoalari bilan birgalikda ijro mahoratini oshirish, vocal ijrochiligi kabi mashg`ulotlarni kiritish maqsadga muvofikdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
2. Pedagogika A.Q.Munavvarovning tahriri ostida. -T.: O'qituvchi, 1996.-200b.
3. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: O.Hasanboeva, T.: O'qituvchi, 1990.
4. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O'qituvchi», 1996, 86-102-b.